| Sobirova Xilola Rustam qizi                                                                                                                                             |     |
| SURXONDARYO VILOYATIDA AHOI JON BOSHIGA CHAKANA SAVDO AYLANMASI HAJMI<br>KO'RSATKICHLARINI ARIMA MODEL YORDAMIDA PROGNOZLASHTIRISH.....                                 | 571 |
| Qudratova Shahnoza Shuhrat qizi                                                                                                                                         |     |
| XO'JALIK JAMIYATLARIDA BOSHQARUV ORGANLARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH.....                                                                                           | 579 |
| Valijonov Akmaljon                                                                                                                                                      |     |
| XIZMATLAR IQTISODIYOTI VA UNI RIVOJLANISHNING NAZARIY ASOSLARI .....                                                                                                    | 584 |
| Abduxoliqova Farangiz Abduxoliq qizi                                                                                                                                    |     |
| O'ZBEKISTONDA TRANSPORT-LOGISTIKA TIZIMI: HOZIRGI HOLATI, MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH<br>ISTIQBOLLARI.....                                                                | 588 |
| Kuvandikov Shuxrat Oblokulovich, Abduxalikova Komila Abduxalikovna                                                                                                      |     |
| ИНТЕГРАЦИЯ МЕТОДОВ КАЛЬКУЛИРОВАНИЯ ПО ВИДАМ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ (АВС) И ЦЕЛЕВОГО<br>КАЛЬКУЛИРОВАНИЯ (ТС) КАК ИНСТРУМЕНТ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ<br>УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЕТА ..... | 595 |
| Киличева Ф.Б.                                                                                                                                                           |     |
| GAZ TARMOQLARINI MODERNIZATSIYA QILISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI<br>BAHOLASH.....                                                                                   | 601 |
| Xamidov Xayriddin Faxritdinovich                                                                                                                                        |     |
| SOLIQ NAZORATI TIZIMI: IQTISODIY MOHIYATI, SHAKLLARI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH<br>YO'LLARI.....                                                                       | 606 |
| Donaboyev Dostonbek Xusan o'g'li                                                                                                                                        |     |
| УПРАВЛЕНИЕ ПРИБЫЛЬЮ ПРЕДПРИЯТИЯ КАК ФАКТОР РОСТА ЕГО ФИНАНСОВОЙ<br>ЭФФЕКТИВНОСТИ .....                                                                                  | 610 |
| Агзамов Авазхон Талгатович, Алиева Сусанна Сейрановна                                                                                                                   |     |
| NOBANK KREDIT TASHKIOTLARINING AKTIV OPERATSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING<br>DOLZARB MASALALARI .....                                                                    | 618 |
| Sardor Karimov Boydulla o'g'li                                                                                                                                          |     |
| INVESTITSION JOZIBADORLIKNING IQTISODIY MOHIYATI VA INVESTITSIYA NAZARIYALARI<br>INTEGRATSIYASI .....                                                                   | 624 |
| Abdullayeva Nilufar Ruslanovna                                                                                                                                          |     |
| QURILISH KORXONALARINI KORPORATIV QIMMATLI QOG'OZLAR ORQALI MOLIYALASHTIRISHNING<br>ILG'OR XORIJ TAJRIBASI VA UNI QO'LLASH YO'NALISHLARI.....                           | 630 |
| Igitov Jurabek Kuzibekovich                                                                                                                                             |     |
| OPEN BANKING AS A DRIVER OF FINANCIAL INNOVATION AND INCLUSION IN UZBEKISTAN'S<br>BANKING SECTOR.....                                                                   | 637 |
| Kuvatova Oliy Sheraliyevna, Asadbek Ergashov                                                                                                                            |     |
| TIJORAT BANKLARINING MOLIYAVIY SAMARADORLIGINI BOSHQARISH VOSITALARI .....                                                                                              | 642 |
| Sadikov Q.M.                                                                                                                                                            |     |



|                                                                                                                                                     |     |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| BOSHQARUV HISOBIDA NARX SHAKLLANISHINING NAZARIY JIHATLARI (TOVAR BOZORIDA USTUN MAVQEGA EGA XO'JALIK SUBYEKTLARI MISOLIDA).....                    | 646 |
| Xaitmetov Elmurat Sidikmatovich                                                                                                                     |     |
| ПРОГНОЗИРОВАНИЕ ЭНЕРГОЁМКОСТИ ВВП НА ОСНОВЕ МАКРОЭКОНОМИЧЕСКИХ МОДЕЛЕЙ .....                                                                        | 652 |
| Муслимова Ф.С., Хашимова Н.А.                                                                                                                       |     |
| XALQARO LOYIHALARNI BOSHQARISHDA RAQAMLI INTEGRATSIYA YETUKLIGI MODEL VA SAMARADORLIKNI BAHOLASH METODOLOGIYASI .....                               | 659 |
| Ne'matova Bonura Umid qizi                                                                                                                          |     |
| RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA ICHKI AUDITNING MOHIYATI, MAQSADI VA ASOSIY VAZIFALARI .....                              | 664 |
| Mamatqulov Avazbek Axmadaliyevich                                                                                                                   |     |
| OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARI FAOLIYATIDA ZAMONAVIY BOSHQARUV ASOSIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI TA'MINLASH.....                                          | 674 |
| Xusanova Gavhar                                                                                                                                     |     |
| MAHALLIY SHAROITDA SUV TEJOVCHI TEXNOLOGIYALARNI KO'P MEZONLI BAHOLASHNING IQTISODIY YO'NALTIRILGAN GIBRID MODEL VA UNING AMALIY QO'LLANILISHI..... | 679 |
| Mirzayeva Shaxnoza Mamat qizi                                                                                                                       |     |
| O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA QUYOSH FOTOELEKTR STANSIYALARINING HOLATI VA O'RNATILGAN QUVVATLARINI TAHLIL QILISH .....                                | 683 |
| Maxamadiyev Farrux Mirazimovich, Baratov Laziz Suyun o'g'li                                                                                         |     |
| BUDJET TASHKILOTLARIDA BUDJETDAN TASHQARI MABLAG'LARNING NAZORATINI TASHKIL QILISH.....                                                             | 688 |
| Dadaboyev Tulqinjon Yusupjonovich, Dadaboyev Abdurahmon Ne'matjon o'g'li                                                                            |     |
| RAQAMLI IQTISODIYOT BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING IQTISODIY OMILLARI VA ZAMONAVIY AHAMIYATI .....                                                   | 693 |
| Yusubov Inomjon Ikrom o'g'li                                                                                                                        |     |
| MOLIYAVIY RESURLARNI BOSHQARISHNING NAZARIY-METODOLOGIK VA AMALIY JIHATLARI .....                                                                   | 699 |
| Narzulloyev Behruz Baxtiyor o'g'li                                                                                                                  |     |
| RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA RAQAMLI BANK XIZMATLARI AMALIYOTI TAHLILI .....                                                                      | 702 |
| Kazakbayev S.B.                                                                                                                                     |     |
| BOG'DORCHILIK TARMOG'NI RIVOJLANTIRISHDA SUV TEJAMKOR TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING IQTISODIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH .....               | 705 |
| Sattorov Orifjon Boymurodovich                                                                                                                      |     |
| MHXS ASOSIDA SUG'URTA KOMPANIYALARINING BUGALTERIYA HISOB VA MOLIYAVIY TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH STRATEGIYALARI.....                              | 709 |
| Alimov Baxodir Batirovich                                                                                                                           |     |
| QISHLOQ XO'JALIGINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA DAVLATNING IMTIYOZLI MOLIYALASHTIRISH MYEXANIZMLARIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH .....          | 718 |
| Xolmatov Sanjarbek Xojimamatovich                                                                                                                   |     |
| MAHALLA TIZIMIDA INSON KAPITALIDAN SAMARALI FOYDALANISH VA INKLYUZIV IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH YO'NALISHLARI.....                               | 724 |
| Berkinov Bozorboy Berkinovich                                                                                                                       |     |
| XALQARO TURIZM BOZORIDA MICE TURIZMINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH JARAYONLARINING NAZARIY ASOSLARI .....                                         | 728 |
| Fayyoza Xalimova Nafasovna                                                                                                                          |     |
| O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA MIJOZLARGA YO'NALTIRILGAN BIZNES JARAYONLARINI TRANSFORMATSIYA QILISH AMALIYOTI.....                                 | 733 |
| Azimov Asrorjon Muzaffarjonovich                                                                                                                    |     |
| RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA BANDLIKNI LEGALLASHTIRISHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI .....                                                  | 737 |
| Xalimbetov Farxad Bagibekovich                                                                                                                      |     |



|                                                                                                                             |     |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| TIJORAT BANKLARINING BIZNES EKOTIZIMI MUAMMO VA YECHIMLAR.....                                                              | 742 |
| Shoymardonov Orziqul Jo'ra o'g'li                                                                                           |     |
| QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI YALPI HUDUDIIY MAHSULOT XAJMIGA ASOSIY KAPITALGA KIRITILGAN INVESTISIYALARNING TA'SIRI .....  | 749 |
| Sultanov Anvar Abdullaevich                                                                                                 |     |
| YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA QURILISH SANOATINING IQTISODIY HOLATI.....                                            | 754 |
| Axmedova Sanobar Ikrom qizi, Davlatov Ahmadjon Anvarbek o'g'li                                                              |     |
| DAVLAT XUSUSIY SHERIKCHILIK LOYIHALARIDA VUJUDGA KELADIGAN RISKLARGA QARSHI UZOQ MUDDATLI IQTISODIY STRATEGIYALAR .....     | 760 |
| Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li                                                                                          |     |
| MODERN MODELS OF SALES LOGISTICS IN THE SERVICE SECTOR: MARKETING ASPECT AND AREAS FOR IMPROVEMENT .....                    | 764 |
| Mamatkulova Shoir Djalolovna                                                                                                |     |
| РОЛЬ ПЛАНИРОВАНИЯ И ПРОГНОЗИРОВАНИЯ В СИСТЕМЕ ОРГАНИЗАЦИИ ФИНАНСОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СУБЪЕКТОВ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА.....        | 769 |
| Ахмедова Азиза Тохировна, Зайналов Ж.Р.                                                                                     |     |
| ВЫСШАЯ МАТЕМАТИКА КАК ОСНОВА ФИНАНСОВОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ В ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ И ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВЕ.....                      | 774 |
| Айматова Фарида Хуразовна                                                                                                   |     |
| XORIJIY MOLIVAVIY RESURLAR VA ULARNING IQTISODIY O'SISH SIFATINI TA'MINLASHDAGI O'RNI .....                                 | 778 |
| Xomidova Kamola G'olib qizi                                                                                                 |     |
| SUG'URTA TASHKILOTLARIDA TO'LOV QOBILIYATINI OSHIRISHGA QARATILGAN ICHKI BOSHQARUV INSTRUMENTLARINI TAKOMILLASHTIRISH ..... | 783 |
| Xattabov Murodulla Batirovich                                                                                               |     |
| RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING MINTAQALAR BARQAROR RIVOJLANISHIGA TA'SIRI .....                                                | 788 |
| Hakimova Nozimaxon Sobirjon qizi                                                                                            |     |
| O'ZBEKISTON QURILISH KORXONALARIDA KORPORATIV-IJTIMOIIY MAS'ULIYAT HOLATI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI .....                 | 795 |
| Murotkosimov Shoxrux Abdisalimovich                                                                                         |     |
| ТЕНДЕНЦИИ ИЗМЕНЕНИЯ ВАЛОВОГО ВНУТРЕННЕГО ПРОДУКТА УЗБЕКИСТАНА ЗА ПОСЛЕДНИЕ ГОДЫ.....                                        | 803 |
| Ишонкулова Феруза Асатовна                                                                                                  |     |
| CHIQUINDILARNI QAYTA ISHLASH JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH .....                | 808 |
| Sadinov Aziz Ziyadullayevich                                                                                                |     |



## CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

**Sadinov Aziz Ziyadullayevich**

Toshkent amaliy fanlar universiteti  
“Kompyuter injiniringi” kafedrası mudiri  
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),  
ORCID: <https://orcid.org/0000-0003-0387-7345>  
E-mail: azizsadinov1909@gmail.com

**Annotatsiya.** Dunyo mamlakatlari qatori O'zbekiston Respublikasida ham raqamli iqtisodiyot jadal rivojlanib bormoqda. Axborot texnologiyalarining kundalik hayotimizga keng joriy etilishi natijasida aholi uchun ko'plab yangi imkoniyatlar yaratilmoqda. Jumladan, hozirgi kunda uydan chiqmagan holda turli oziq-ovqat mahsulotlari va tayyor taomlarga buyurtma berish hamda ularni manzilga tezkor yetkazib berish xizmatlaridan foydalanish imkoniyati mavjud.

Jamiyatda raqamli iqtisodiyotning izchil rivojlanishi ekologik jarayonlarda ham samarali natijalar bermoqda. Xususan, chiqindilar bilan bog'liq muammolarni zamonaviy yondashuvlar asosida hal etish, ikkilamchi resurslarni qayta ishlash orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish hamda ushbu jarayonlarni raqamlashtirish asosida boshqarish imkoniyatlari kengaymoqda. Bu esa barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash va resurslardan oqilona foydalanish uchun muhim omil hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** korxonalarda ishlab chiqarish, ikkilamchi resurslarni qayta ishlash, sanoat ishlab chiqarishini samarali tashkil etish, raqamli iqtisodiyot, raqamlashtirish.

**Abstract.** Like other countries of the world, the digital economy is steadily developing in the Republic of Uzbekistan. The widespread introduction of information technologies into daily life creates new opportunities for the population. In particular, today it is possible to order various food products and ready-made meals without leaving home and receive fast delivery services directly to the destination.

The consistent development of the digital economy also contributes to improving ecological processes. In particular, it enables the application of modern approaches to waste management, increases economic efficiency through the recycling of secondary resources, and supports the digitalization of these processes. This, in turn, serves as an important factor in ensuring sustainable economic growth and efficient resource utilization.

**Key words:** industrial production, secondary resource recycling, enterprise activity, digital economy, digitalization.

**Аннотация.** Как и во многих странах мира, в Республике Узбекистан последовательно развивается цифровая экономика. Широкое внедрение информационных технологий в повседневную жизнь создает новые возможности для населения. В частности, в настоящее время можно заказывать различные продукты питания и готовые блюда, не выходя из дома, и получать их с доставкой по месту назначения.

Развитие цифровой экономики также способствует повышению эффективности экологических процессов. Применение современных подходов к управлению отходами, переработка вторичных ресурсов и цифровизация этих процессов позволяют повысить экономическую эффективность и обеспечить рациональное использование ресурсов. Это является важным фактором обеспечения устойчивого экономического роста.

**Ключевые слова:** промышленное производство, переработка вторичных ресурсов, деятельность предприятий, цифровая экономика, цифровизация.



## KIRISH

Raqamli iqtisodiyotda iqtisodiy sof foyda olish va samaradorlikka erishish elektron tizimlarni amaliyotga joriy etish orqali ta'minlanadi. Jumladan, chiqindilarni saralash, olib chiqib ketish va qayta ishlanadigan chiqindilar hajmini aniqlash jarayonlarini raqamli tizim asosida tashkil etish aholi uchun qulaylik yaratadigan samarali mexanizm hisoblanadi. Chiqindi mahsulotlarni raqamlashtirilgan platforma orqali (kunlik, haftalik, oylik, yillik) hisobga olish ularning iqtisodiy samaradorligini va ekologik holatini yagona tizimda monitoring qilish imkonini beradi. Bu esa chiqindilarni saralash va qayta ishlash jarayonlarida vaqt tejallishini hamda boshqaruv samaradorligini oshirishni ta'minlaydi.

Hozirgi kunda mamlakatimiz aholisi iqtisodiyot tarmoqlarining transformatsiyasi, ishlab chiqarish va qayta ishlash jarayonlarining raqamlashtirilishi hamda sun'iy intellekt texnologiyalarining joriy etilishi bilan bog'liq muhim rivojlanish bosqichini boshdan kechirmoqda. 2025-yilga kelib jahon iqtisodiyotining sezilarli qismi raqamli sektor hissasiga to'g'ri kelishi prognoz qilinayotgan sharoitda yangi iqtisodiyotni rivojlantirish zarurati yanada ortmoqda. Bu esa, o'z navbatida, vaqt va resurslardan samarali foydalanishni ta'minlash imkonini yaratadi.

Internet texnologiyalari orqali chiqindilarni yig'ish punktlarini elektron chiqlar yordamida boshqarish, chiqindilar bilan bog'liq jarayonlarni nazorat qilish va ularni qayta ishlash tizimiga yo'naltirish imkoniyati yaratilmoqda. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar boshqa turdagi xizmatlarni ham keng rivojlantirish imkonini bermoqda. Jumladan, tushlikka onlayn buyurtma berish, mobil ilova orqali transport xizmatlaridan foydalanish, masofadan turib moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish, transchegaraviy biznes hamkorlikni yo'lga qo'yish, elektron tijorat platformalarida faoliyat yuritish va masofaviy ish faoliyatini tashkil etish imkoniyatlari kengaymoqda.

Raqamli iqtisodiyot — bu raqamli texnologiyalarga asoslangan, elektron biznes, elektron tijorat, ishlab chiqarish va qayta ishlash jarayonlari bilan uzviy bog'langan, raqamli tovar va xizmatlarni yaratish hamda taqdim etishga qaratilgan iqtisodiy faoliyatdir. Bunda iqtisodiy operatsiyalar, xizmatlar va tovarlar uchun hisob-kitoblar asosan elektron to'lov tizimlari orqali amalga oshiriladi. Raqamli iqtisodiyot konsepsiyasi axborot va ma'lumotlarni asosiy iqtisodiy resurs sifatida shakllantirishga asoslanadi.

Raqamli iqtisodiyot alohida faoliyat turi bo'libgina qolmay, balki sanoat korxonalari, xizmat ko'rsatish sohasi va biznes jarayonlarida axborot texnologiyalaridan keng foydalanishni anglatadi. Agar an'anaviy iqtisodiyotda moddiy resurslar asosiy omil hisoblangan bo'lsa, raqamli iqtisodiyotda asosiy resurs sifatida axborot va ma'lumotlar maydonga chiqadi. Raqamli iqtisodiyot sanoat korxonalarining ish samaradorligini oshirish, ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish, boshqaruv shaffofligini ta'minlash va mahsulot tannarxini kamaytirish imkonini beradi.

Nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi yalpi ichki mahsulot hajmining sezilarli darajada oshishiga, iqtisodiy jarayonlarning shaffofligini ta'minlashga va iqtisodiy samaradorlikni yuksaltirishga xizmat qiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston Respublikasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va raqamli texnologiyalardan foydalanish hamda ularning iqtisodiy samaradorligini oshirish masalalari bo'yicha qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, ushbu yo'nalishda A.N. Aripov, S.S. G'ulomov, B.A. Begalov, A. Abdugaffarov, B. Berkinov, R.A. Dadabayeva, D.M. Rasulev, A.T. Kenjabayev, A.M. Abduvoxidov, I.Ye. Jukovskaya, O.Q. Rixsimboyev, T.P. Jiemuratov, A.Sh. Kudaybergenov, T.S. Qo'chkarov, D.R. Mamasoatov, M.M. Maxammadiyev, A.B. Bobojonov, A.Z. Sadinov, O.S. Umarov, Sh.G'. Odilov, M.K. Abdullayev hamda B.R. Vafoyevlarning ilmiy ishlari alohida ilmiy ahamiyatga ega.

Mazkur olimlar o'z tadqiqotlarida raqamli iqtisodiyotni shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining iqtisodiyot tarmoqlariga ta'siri, raqamli infratuzilmani rivojlantirish mexanizmlari, elektron biznes va elektron tijoratni joriy etishning iqtisodiy samaradorligi hamda ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirish orqali resurslardan samarali foydalanish masalalarini keng yoritib berganlar.

Shuningdek, ularning ilmiy izlanishlarida raqamli texnologiyalar asosida boshqaruv tizimini takomillashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, innovatsion rivojlanishni ta'minlash, raqamli platformalarni joriy etish hamda iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishida axborot texnologiyalarining o'rni va ahamiyati chuqur asoslab berilgan. Ushbu tadqiqotlar natijalari raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning ilmiy-nazariy va amaliy asoslarini takomillashtirishda muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Chiqindilarni yig'ish tizimi, ularni utilizatsiya qilish va qayta ishlash jarayonlari umumiy chiqindi boshqaruvi xarajatlarning muhim qismini tashkil etadi hamda yuqori darajada mehnat talab qiluvchi jarayon hisoblanadi.



Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda, xususan, Yevropa davlatlari va AQSHda chiqindilarni yig'ish, tashish, utilizatsiya qilish va qayta ishlash tizimlari mazkur sohadagi umumiy operatsion xarajatlarning salmoqli ulushini egallaydi.

Jumladan, Yevropa mamlakatlarida o'tkazilgan amaliy tadqiqotlar natijalariga ko'ra, uy xo'jaliklaridan qog'oz va qadoqlash chiqindilarini yig'ish bilan bog'liq operatsion xarajatlar umumiy xarajatlarning 40 foizdan 65 foizgacha qismini tashkil etishi aniqlangan. Bu esa chiqindilarni yig'ish jarayonini optimallashtirish va uning samaradorligini oshirish muhim ilmiy va amaliy vazifa ekanligini ko'rsatadi.

Mazkur tadqiqot metodologiyasi chiqindilarni yig'ish va qayta ishlash tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlarini tahlil qilishga asoslanadi. Xususan, logistika jarayonlarini raqamlashtirish orqali xodimlar faoliyatini muvofiqlashtirish, transport vositalaridan samarali foydalanish, yig'ish marshrutlarini optimallashtirish hamda chiqindilarni tashish jarayonlarini samarali rejalashtirish imkoniyatlari o'rganildi.

Raqamli texnologiyalar ushbu jarayonlarda barcha zarur ma'lumotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash, tahlil qilish va optimallashtirish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, raqamli platformalar orqali ma'lumotlarni tezkor izlash, ularni tizimlashtirish va real vaqt rejimida monitoring qilish imkoniyati yaratiladi. Bu esa chiqindilarni yig'ish jarayonining samaradorligini oshirish, operatsion xarajatlarni kamaytirish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Ma'lumotlarni tezkor izlash va ularni tegishli kontekstda tahlil qilish imkoniyati logistika operatorlari va dispetcherlar faoliyatining samaradorligini oshiradi, transport vositalari harakatini muvofiqlashtirishni yaxshilaydi hamda chiqindilarni yig'ish va tashish jarayonlarining umumiy samaradorligini oshirishga imkon yaratadi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Davlat tomonidan fuqarolarga elektron xizmatlar ko'rsatish va elektron mahsulotlarni taklif etish raqamli iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Mamlakatimizda ushbu yo'nalishni keng rivojlantirish davlat boshqaruvi tizimining samaradorligini oshirish, ochiqlik va shaffoflikni kuchaytirish hamda boshqaruv jarayonlarini optimallashtirishga xizmat qilmoqda. Raqamli ma'lumotlar muhim iqtisodiy resurs sifatida qaralib, ular tahlil qilinib, boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayoniga integratsiya etilgandagina yuqori iqtisodiy samara keltiradi. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi natijasida raqamli platformalarni yaratish, katta hajmdagi ma'lumotlarni boshqarish va ulardan iqtisodiy qiymat yaratish mexanizmlarini shakllantirish dolzarb masalaga aylanmoqda. Bu esa qiymat yaratish, uni boshqarish, taqsimlash va samarali foydalanish jarayonlarini chuqur o'rganishni talab etadi.

Hozirgi kunda kichik va o'rta korxonalar ham raqamli texnologiyalar yordamida nisbatan kam xarajat bilan yuqori iqtisodiy natijalarga erishish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Xususan, "raqamli korxonalar" faoliyatida bulutli texnologiyalar asosida shakllangan masofaviy ishchi guruhlar samarali faoliyat yuritmoqda. Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida tadbirkorlik subyektlarining raqamli texnologiyalardan foydalanishi ularning raqobatbardoshligini oshirishning muhim omiliga aylanmoqda. Shu sababli rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda yetakchi kompaniyalar bulutli xizmatlardan keng foydalanmoqda. Bulutli texnologiyalarni rivojlantirish esa o'z navbatida milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Mamlakatimizda raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohalarida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash, moliya-bank tizimi, qishloq xo'jaligi va boshqa muhim sohalarida raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali boshqaruv samaradorligini oshirish, xizmatlar sifatini yaxshilash va iqtisodiy samaradorlikni ta'minlashga erishilmoqda. Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-sonli "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi Farmoni qabul qilinib, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarni raqamlashtirish, davlat axborot tizimlarini rivojlantirish va elektron xizmatlarni keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimiz iqtisodiyotidagi tarkibiy o'zgarishlarning asosiy omillaridan biri raqamli transformatsiya jarayoni hisoblanadi. Ushbu jarayon biznes strategiyasi va biznes jarayonlarini takomillashtirish, iqtisodiy subyektlar o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash, ish jarayonlarini soddalashtirish hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Raqamli transformatsiya natijasida ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarining rentabelligi oshib, resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlari kengaymoqda.

Xususan, narsalar interneti (IoT) texnologiyalarini joriy etish ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, uskunalardan foydalanish samaradorligini oshirish va texnik xizmat ko'rsatish xarajatlarini kamaytirish imkonini bermokda. Zamonaviy IT-tizimlarni joriy etish orqali uskunalarining texnik holatini doimiy monitoring qilish, profilaktik xizmat ko'rsatishni tashkil etish hamda favqulodda nosozliklar sonini kamaytirish imkoniyati yaratilmoqda. Bu esa ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bilan bir qatorda korxonalar xarajatlarini optimallashtirishga xizmat qiladi.




Iqtisodiyotning real sektorini raqamlashtirish ishlab chiqaruvchilar uchun sanoatni modernizatsiya qilish, mahsulot sifatini oshirish va aholining ehtiyojlarini to'liqroq qondirish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar chiqindilarni boshqarish, ularni qayta ishlash va ikkilamchi resurslardan samarali foydalanish jarayonlarini takomillashtirishda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Iqtisodiy jarayonlarni samarali boshqarish maqsadida raqamli texnologiyalar asosida quyidagi yo'nalishlarni rivojlantirish muhim hisoblanadi:

- chiqindilarni saralash va qayta ishlash jarayonlarini raqamlashtirish;
- korxonalarning ishlab chiqarish hajmlarini raqamli monitoring qilish;
- ikkilamchi xom ashyo resurslarini qayta ishlashga yo'naltirilgan transport qatnovini optimallashtirish;
- transport vositalari orqali chiqindi resurslarini tashish jarayonlarini raqamli tizim asosida boshqarish;
- chiqindilarni qayta ishlash jarayonlarini raqamlashtirish mexanizmlarini joriy etish (1-rasm).

Mazkur yo'nalishlarning amaliyotga joriy etilishi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish, ekologik barqarorlikni ta'minlash hamda raqamli iqtisodiyotning iqtisodiy samaradorligini yanada oshirish imkonini beradi.



1-rasm. Chiqindilarni qayta ishlash jarayonlarini boshqarishning raqamlashtirish mexanizimi<sup>1</sup>

Hozirgi kundagi umumiy holatni hisobga olganda, qaysi soha bo'lishidan qat'i nazar, axborotni saqlash yoki uzatish bilan bog'liq deyarli barcha qog'ozga asoslangan jarayonlar raqamlashtirish jarayonining faol ta'siri ostida rivojlanmoqda. Chiqindilarni boshqarish va qayta ishlash sohasida ham ushbu jarayonlar izchil joriy etilmoqda. Jumladan, hisob-kitoblar, buxgalteriya hisobi, nazorat, buyurtmalarni qayta ishlash, hujjat aylanishi, subpudratchilar faoliyatini boshqarish hamda boshqa ko'plab operatsion jarayonlar bosqichma-bosqich raqamli shaklga o'tkazilmoqda.

Raqamlashtirishning afzalliklari aniq namoyon bo'lmoqda, xususan, xarajatlarning qisqarishi, ma'lumotlarni ishonchli saqlash imkoniyatining kengayishi, ma'lumotlarni tezkor qidirish va uzatish imkoniyatining yaxshilanishi hamda ma'lumotlardan takroriy foydalanishda xatoliklarning kamayishi kuzatilmoqda. Ushbu vazifalarni samarali amalga oshirish uchun turli darajadagi dasturiy yechimlar ishlab chiqilgan va amaliyotda keng qo'llanilmoqda.

Bugungi kunda alohida funksiyalar uchun mo'ljallangan maxsus dasturiy ta'minotlar bilan bir qatorda, butun jarayonlarni kompleks ravishda boshqarishga mo'ljallangan integratsiyalashgan dasturiy paketlar ham mavjud. Shu bilan birga, turli dasturiy yechimlar o'rtasidagi interfeyslar va ularning o'zaro mosligini ta'minlash masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur yo'nalishda sezilarli yutuqlarga erishilgan bo'lsa-da, ayrim jarayonlarni yanada takomillashtirish zarurati saqlanib qolmoqda.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, chiqindilarni boshqarish jarayonlarini raqamlashtirish samarali natijalar bermoqda. Jumladan, Germaniyada xavfli va zararli chiqindilarni utilizatsiya qilishni nazorat qilish maqsadida elektron hujjatlashtirish tizimi joriy etilgan. Ushbu tizim orqali chiqindilar bilan bog'liq barcha bosqichlar elektron shaklda rasmiylashtiriladi va nazorat qilinadi. Jarayonda ishtirok etuvchi tomonlar, ya'ni davlat organlari, utilizatsiya kompaniyalari, yig'uvchilar, tashuvchilar va ishlab chiqaruvchilar o'zaro elektron platformalar orqali ma'lumot almashadi. Elektron registrlarni yuritish va elektron imzodan foydalanish majburiy tartibda amalga oshiriladi, bu esa jarayonlarning shaffofligi va ishonchlilikini ta'minlaydi.

Raqamli texnologiyalar hozirgi kunda Yevropa mamlakatlarida chiqindilarni boshqarish tizimini rivojlantirishning muhim vositasiga aylangan. Xususan, chiqindilarni yig'ish, tashish, saralash va qayta ishlash

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi



jarayonlarini raqamlashtirish orqali resurslardan samarali foydalanish, ekologik barqarorlikni ta'minlash va iqtisodiy samaradorlikni oshirishga erishilmoqda.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Raqamli texnologiyalar asosida chiqindilarni qayta ishlash va ishlab chiqarish tizimi faoliyatida mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish, uning iqtisodiy hamda texnik-texnologik elementlarini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish va optimallashtirish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Bu esa mazkur yo'nalishda fundamental va amaliy tadqiqotlarni kengaytirishni taqozo etadi. Qayta ishlash va undan samarali foydalanish jarayonlarida korxonalar faoliyati samaradorligini oshirish, ularning raqobatbardoshligini mustahkamlash hamda barqaror rivojlanish uchun zarur iqtisodiy asoslarni shakllantirish imkonini beradi.

Buning uchun korxonalar faoliyatida korporativ strategiyani qo'llab-quvvatlovchi, raqamli texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan boshqaruv tizimini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan korxonaning raqamli boshqaruv tizimi keyinchalik amalga oshiriladigan tashkiliy-iqtisodiy qarorlar va amaliy yechimlarni belgilaydi, ya'ni zarur sifatga ega mahsulotni talab etilgan hajmda, aniq iste'molchiga, minimal xarajatlar asosida, belgilangan muddatda va kerakli hududga yetkazib berishni ta'minlash imkonini yaratadi.

O'tkazilgan hisob-kitoblar shuni ko'rsatadiki, dissertatsiyada ko'rib chiqilgan misollarda moddiy resurslar oqimining taqsimoti tizimli yondashuv asosida amalga oshirilganda, ularning samaradorligini oshirish va boshqaruv jarayonlarini optimallashtirish uchun keng imkoniyatlar mavjud. Bu esa raqamli texnologiyalar yordamida logistika va resurslar harakatini yanada aniq rejalashtirish va boshqarish imkonini beradi. Shu bilan birga, yuk jo'natuvchi va qabul qiluvchi punktlar faoliyatini raqamli platformalar orqali muvofiqlashtirish chiqindilarni boshqarish tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Mazkur holat chiqindilarni boshqarishning hududiy tizimlari va xizmat ko'rsatish jarayonlarini yanada takomillashtirish, ularning samaradorligini oshirish hamda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni optimallashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Qayta ishlash tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etishda texnik-texnologik vositalarning moslashuvchanligi va integratsiyalashuvi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayon texnologik tizimlarning funksional-konstruktiv sxemalarini samarali rejalashtirish orqali amalga oshiriladi. Bunday yondashuv texnik vositalarning o'zaro muvofiqligini ta'minlash, moddiy oqimlarni samarali boshqarish hamda tizimning tashkiliy-iqtisodiy barqarorligini mustahkamlash imkonini beradi.

Zarur texnik vositalarni tanlash va joriy etishda ularning konstruktiv yechimlari, boshqa texnologik elementlar bilan integratsiyasi hamda raqamli texnologiyalar asosida optimallashtirilishi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu esa chiqindilarni qayta ishlash jarayonlarining samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga xizmat qiladi.

Chiqindilarni raqamli texnologiyalar asosida qayta ishlash jarayonlarini boshqarishning samarali tizimini yaratish tegishli nazariy va amaliy ishlanmalarni ishlab chiqishni talab etadi. Bunda boshqaruvning zamonaviy usullari, vositalari va mexanizmlari bilan bir qatorda, raqamli texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan innovatsion elementlarni ham keng qo'llash muhim hisoblanadi.

Raqamli texnologiyalarni joriy etish va boshqaruv jarayonlarini samarali tashkil etish korxonalar raqobatbardoshligini oshirish, ularning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlash hamda iqtisodiy samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Shu munosabat bilan, raqamli boshqaruv sohasida ilg'or xorijiy tajribalarni milliy iqtisodiyot xususiyatlariga moslashtirgan holda joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Chiqindilarni qayta ishlash tizimining zamonaviy rivojlanish bosqichida yirik korxonalarda ilmiy tadqiqot va ishlab chiqarish jarayonlarini integratsiyalash asosida ilmiy-texnik majmualarni shakllantirish tendensiyasi kuzatilmoqda. Bu esa "fan – ishlab chiqarish" integratsiyasini kuchaytirish, innovatsiyalarni tezkor joriy etish hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkonini beradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sadinov A.Z. Chiqindi mahsulotlarni qayta ishlashda AKT yordamida innovatsion rivojlanish samaradorligini oshirish // Academic Research in Educational Sciences. – 2020. – Volume 1, Issue 3. – B. 97–101. ISSN: 2181-1385. – [www.ares.uz](http://www.ares.uz)
2. Sadinov A.Z. Chiqindi mahsulotlarini qayta ishlash jarayonlarini AKT yordamida takomillashtirish // "Agrar tarmoqda innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish masalalari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Samarqand, 25–26 mart 2021.
3. Sadinov A.Z. Methods of automation and management of waste recycling in the digital economy // "Moliya-kredit tizimining iqtisodiyotning real sektori bilan o'zaro munosabatlarini institutsional rivojlantirish" mavzusidagi XIII xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – 2021. – B. 92–96.
4. Sadinov A.Z. Methods of automation and management of waste recycling in the digital economy // Obrazovaniye i nauka v XXI veke. – 2021. – №20 (Tom 4). – B. 563–569.



5. Sherquziyev M., Mirzaliyev S.M., Sadinov A.Z. Sun'iy intellekt yordamida ekologik muammolarni hal qilish va iqtisodiy samaradorligini oshirish // "Iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasida sun'iy intellektni rivojlantirishning asosiy tendensiyalari" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent moliya instituti, 25 mart 2022. – B. 96–99.
6. Sadinov A.Z. Theoretical foundations of waste management // "Nauchnye issledovaniya i innovatsii v industrii 4.0" mavzusidagi respublika ilmiy-texnik konferensiya materiallari. – Toshkent, 13–15 mart 2022. – B. 226–236.
7. Sadinov A.Z. Improving waste recycling in Uzbekistan using digital technologies // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar elektron jurnali. – 2022. – Maxsus son (2), 9 noyabr.
8. Sadinov A.Z. O'zbekiston Respublikasida chiqindi mahsulotlarini qayta ishlashda innovatsion texnologiyalarning o'rni // "O'zbekistonning bugungi taraqqiyot tamoyillari va rivojlanish istiqbollari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – 2021. – B. 119–121.
9. Sadinov A., Rajabov Sh. Utilizing digital technologies for waste management // E3S Web of Conferences. – 2023. – Vol. 381, 01096. DOI: <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202338101096>
10. Sadinov A., Rajabov Sh., SamiYeva M. Improving waste recycling in Uzbekistan using digital technologies // E3S Web of Conferences. – 2023. DOI: <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202345205023>
11. Abdullayev M.K., Sadinov A.Z. Raqamli texnologiyalar asosida chiqindi mahsulotlarni qayta ishlash jarayonlari // "Mintaqaviy iqtisodiyotning zamonaviy muammolari: tajriba, tendensiyalar va istiqbollar" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – 28 oktabr 2023.
12. Sherquziyev M., Sadinov A.Z. Chiqindi mahsulotlarini qayta ishlashni optimallashtirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning uslubiy jihatlari // "Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining tutgan o'rni" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 23 noyabr 2023.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 2026. № 2

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---